

Umarova Farangiz Baxriddin qizi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Email: Umarova.farangiz18@mail.ru

+998903534778

**DEVID NIKOLLSNING "ONE DAY" ASARIDA TASVIRLANGAN
JAMIYAT VA AYOL MUNOSABATLARI**

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot zamonaviy ingliz nasrida ayol va jamiyat munosabatlarining badiiy talqinini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda gender tengligi, ayol shaxsiyati, ijtimoiy maqom, feminizm, go'zallik standartlari, onalik va ish-hayot muvozanati, texnologiya va ijtimoiy tarmoqlarning ayollar hayotiga ta'siri kabi dolzarb masalalar tahlil qilinadi. Shuningdek, ayol obrazining shakllanishiga ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillarning ta'siri yoritiladi. Tadqiqotning nazariy asoslari sifatida zamonaviy adabiyotshunoslarning qarashlari tahlil qilinib, ayol va jamiyat munosabatlarining umumlashtirilgan mualliflik modeli taklif etiladi. Tadqiqotda XXI asr ingliz adabiyotining yorqin vakili Devid Nikollsning "One Day" romani asosiy manba sifatida o'rganilib, asardagi Emma Morli obrazi orqali zamonaviy mustaqil ayol timsoli ochib beriladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy ingliz nasrida ayol hayotining murakkabligi va jamiyat bilan uzviy bog'liqligini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy ingliz nasri, ayol va jamiyat munosabatlari, gender tengligi, ayol obrazi, ijtimoiy maqom, feministik g'oyalar, mustaqil ayol, shaxs va shaxsiyat, madaniy va ijtimoiy omillar, Devid Nikolls, "One Day" romani.

Умарова Фарангиз Бахриддин кизи

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам,

Узбекский государственный университет мировых языков

Email: Umarova.farangiz18@mail.ru

+998903534778

ОТНОШЕНИЯ ОБЩЕСТВА И ЖЕНЩИНЫ В РОМАНЕ ДЭВИДА НИКОЛЛСА «ОДИН ДЕНЬ»

Аннотация. Данное исследование посвящено художественному анализу взаимоотношений женщины и общества в современной английской прозе. В работе рассматриваются актуальные проблемы гендерного равенства, женской идентичности, социального статуса, феминизма, стандартов красоты, баланса между материнством и профессиональной деятельностью, а также влияния технологий и социальных сетей на жизнь женщин. Особое внимание уделяется социальным, культурным и историческим факторам, формирующим образ женщины в литературе. На основе научных подходов современных исследователей предлагается обобщённая авторская модель анализа отношений женщины и общества. В качестве основного художественного материала исследуется роман Дэвида Николлса «Один день», в котором через образ Эммы Морли раскрывается тип современной независимой женщины. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию сложности женского опыта и его отражения в современной английской прозе.

Ключевые слова: Современная английская проза, отношения женщины и общества, гендерное равенство, женский образ, социальный статус, феминистские идеи, независимая женщина, личность и идентичность, социальные и культурные факторы, Дэвид Николлс, роман «Один день».

Umarova Farangiz Bakhridin kizi

PhD Teacher

Uzbekistan state world languages university,

Email: Umarova.farangiz18@mail.ru

+998903534778

**SOCIETY AND THE POSITION OF WOMEN AS DEPICTED IN
DAVID NICHOLLS'S ONE DAY**

Annotation. *This study is devoted to the artistic analysis of the relationship between women and society in contemporary English prose. The research examines key issues such as gender equality, female identity, social status, feminism, beauty standards, work–life balance, and the impact of technology and social media on women’s lives. Special attention is given to the social, cultural, and historical factors influencing the representation of women in literary works. Based on the theoretical perspectives of modern literary scholars, an author’s generalized model for analyzing women–society relations is proposed. The novel One Day by David Nicholls is used as the primary literary source, with a particular focus on the character of Emma Morley as a representation of the modern independent woman. The findings of the study contribute to a deeper understanding of the complexity of women’s lives and their portrayal in contemporary English literature.*

Keywords: *Contemporary English prose, women and society relations, gender equality, female image, social status, feminist ideas, independent woman, identity and personality, social and cultural factors, David Nicholls, One Day.*

Kirish

Zamonaviy ingliz adabiyotida jamiyat va ayol munosabatlari masalasi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Global ijtimoiy, madaniy va siyosiy o‘zgarishlar sharoitida ayolning jamiyatdagi o‘rni, huquqlari, imkoniyatlari hamda shaxsiy o‘zini anglash jarayonlari badiiy adabiyotda keng va chuqur yoritilmoqda. Ayniqsa, XXI asr ingliz nasrida ayol obrazining murakkabligi, uning ichki kechinmalari va jamiyat bilan bo‘lgan ziddiyatli munosabatlari muhim tadqiqot obyekti sifatida e’tirof etilmoqda.

Zamonaviy ingliz yozuvchilari asarlarida ayol va jamiyat munosabatlarini badiiy tahlil qilish orqali gender tengligi, ijtimoiy adolat, shaxs va shaxsiyat muammolari, ayolning ijtimoiy maqomi, feministik qarashlar, onalik va kasbiy faoliyat o‘rtasidagi muvozanat kabi masalalarni yoritishga intiladilar. Bu esa adabiyotning jamiyatdagi muhim ijtimoiy muammolarni ochib berishdagi o‘rni va ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqot zamonaviy ingliz nasrida ayol va jamiyat munosabatlarining badiiy talqinini o'rganishga bag'ishlanadi. Tadqiqot obyekti sifatida XXI asr ingliz adabiyotining taniqli vakili Devid Nikollarning "One Day" romani tanlandi. Ushbu asar orqali muallif zamonaviy jamiyatda ayolning o'z o'rnini topish jarayoni, ijtimoiy bosimlar, shaxsiy tanlovlar va ichki ziddiyatlarni realistik tarzda aks ettiradi. Xususan, Emma Morli obrazi orqali mustaqil, fikrlovchi va ijtimoiy faollikka intiluvchi zamonaviy ayol timsoli yaratiladi.

Tadqiqotning maqsadi Devid Nikollarning "One Day" romanida ayol va jamiyat munosabatlarining badiiy ifodasini tahlil qilish hamda zamonaviy ingliz nasrida ayol obrazining shakllanish xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: zamonaviy ingliz nasrida ayol va jamiyat munosabatlariga oid nazariy qarashlarni o'rganish; ayol obrazining ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillar bilan bog'liqligini tahlil qilish; asarda jamiyatning ayol shaxsiyatiga ta'sirini ochib berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda "One Day" romani misolida ayol va jamiyat munosabatlari mualliflik modeli asosida tizimli ravishda tahlil qilinadi hamda zamonaviy ingliz nasrida ayol obrazining badiiy talqiniga yangi yondashuv taklif etiladi. Tadqiqot natijalari ingliz adabiyotshunosligi, gender tadqiqotlari hamda adabiy tahlil sohasida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Zamonaviy ingliz nasrchiligida ko'pincha jamiyat va ayollar munosabatlarini badiiy tahlil qilish orqali nozik jihatlarni ochib berish asnosida ayol hayotining murakkabligi aks ettiriladi. Shu sababdan zamonaviy ingliz nasrida ayol va jamiyat munosabatlarini tadqiq qilish, jamiyatdagi muhim muammolarni ochib berishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda zamonaviy ingliz adabiyotida ayol va jamiyat munosabatlarining quyidagi jihatlari o'rganilmoqda:

1) gender tenglik muammolari: bunda yozuvchilar an'anaviy gender rollarni, ayollar tasviriga xos stereotiplarni va ayolning rivojlanib borayotgan tabiatini qayta ko'rib chiqish orqali baho beriladi;

2) shaxs va shaxsiyat: zamonaviy ingliz yozuvchilari ayolning irqi, jinsi, kelib chiqish guruhini e'tiborga olgan holda, ayol shaxsiyatini o'rganadi va tasvirlaydi;

3) jamiyatda ayol maqomining yuksalish bosqichlari: bunda yozuvchilarning obrazga obyektiv va subyektiv munosabati va jamiyatda ayol o'rnining dinamikasi tahlil qilinadi. Ayollar vakolatlari, huquq va erkinliklariga ta'sir qiluvchi nomutanosibliklar shubha ostiga olgan holda nasrda tasvirlanadi;

4) feminizm va ayollar vakolatlari muammolari: zamonaviy ingliz nasrida feministik g'oyalar bilan yo'g'irilgan asarlarda yozuchilar ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish, o'z-o'zini kashf qilish va jamiyat me'yorlariga qarshi kurash yo'lidagi harakatlarini tasvirlashadi;

5) go'zallik standartlari: zamonaviy ingliz asarlarida jamiyatdagi ayollarning o'zini o'zi anglashiga go'zallik me'yorlarining ta'siri o'rganiladi;

6) onalik va ish-hayot muvozanati: bunda yozuvchilar ayollarning ish bilan onalik vazifalari talablarining muvozanatlashishida duch kelinadigan qiyinchiliklarni o'rganadilar va bu muvozanat bo'yicha ijtimoiy va falsafiy mushohadalarini taqdim etadilar;

7) texnologiya va ijtimoiy media: yozuvchilar asarlarida texnologiya va ijtimoiy tarmoqlarning ayollar hayotiga ta'sirining aks etish holati o'rganiladi va ularning ijobiy va salbiy tomonlari ochib berishga harakat qilinadi;

8) global istiqbollar: ayrim ingliz asarlarida xalqaro miqyosda ayollar muammolariga, jumladan, globallashtirish, migratsiya va madaniy xilma-xillikning ta'siriga bag'ishlangan global yechimlar taklif etiladi;

9) qarshilik va faollik: mualliflar ko'pincha faollik va qarshilik ko'rsatayotgan, jamiyat normalariga qarshi chiqqan va reproduktiv huquqlar, gender tenglik va ijtimoiy adolat kabi sohalaridagi o'zgarishlarni targ'ib qiluvchi ayollar tasvirlanadi.

Bundan tashqari, B.B.Kopenhaver [1], S.A.Nesterova [2], L.F.Xabibulina [3] va O.V.Penzinalar [4] zamonaviy nasrda jamiyat va ayollar munosabatlarini

tahlil qilishning asosiy yondashuvlarini ko‘rib chiqishib, millat nasriga xos bo‘lgan ayol obrazini jonlantirishga harakat qilishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotchilar ayol va jamiyat munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini sanab o‘tishgan va biz tadqiqotimizda ularni inobatga olib, ayol va jamiyat munosabatlarining mualliflik asosidagi umumlashtirilgan quyidagicha modelini taqdim qildik (1-rasm).



1-rasm. Ayol obrazini tahlil qilish modeli

Ushbu model bo‘yicha ayol va jamiyat munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagicha izohlash mumkin.

Hikoyachining yondashuvi. Muallif asarda ayol obrazini tasvirlayotganda, qanday shaxs timsolida gavdalantirganiga qarab, uning fikrlari va yondashuvlarini tahlil qilish orqali ayol va jamiyat munosabatlarining asosiy g‘oyasini belgilashi mumkin. Hikoya ayol qahramon nuqtayi nazaridan aytiladimi va bu nuqtayi nazar jamiyatdagi ayollar munosabatlari tasvirini qanday shakllantiradi degan savollarga hikoyachi yondashuvlarini tahlil qilish orqali javob topiladi.

Qahramon shaxsiyati fazilatlarini belgilash. Bunda ayol qahramonlar obraz nazariyasining murakkabligi va tadrijiy dinamikasi nuqtayi nazaridan tahlil

qilinadi. Shuningdek, nasrda ijtimoiy muammolar kontekstida kuchli va sabrli ayol shaxsiyatiga xos bo'lgan fazilatlarining muhim jihatlari o'rganiladi.

Ijtimoiy me'yorlarning ayol shaxsiyatiga ta'sirini o'rganish. Nasrning mazmuni shuki, davrning ijtimoiy normalari asarlarda qanday aks ettirilganligi ko'rib chiqiladi. Ushbu me'yorlar qahramonlarning xatti-harakatlari va munosabatlariga qanday ta'sir qiladi? - degan, savolga javob topishga harakat qilinadi.

Ramz va tasvirni aniqlash. Bunda jamiyatda qabul qilingan ramziy tushunchalar asosida ayol obrazi tasvirlarini tahlil qilish orqali jamiyatning ayollarga bo'lgan munosabati belgilab olinadi.

Bayon etilayotgan mavzu motivlarini ajratish. Jamiyatdagi ayollar munosabatlariga oid takrorlanuvchi mavzu va motivlarni aniqlash orqali o'rganiladi.

Syujet dinamikasini tahlil qilish. Syujet dinamikasida ayol va jamiyat munosabatlarining shakllantirilishi yoki ifodalanishi ko'rib chiqiladi. Ya'ni ayol qahramonlarga ta'sir qiladigan ijtimoiy bosim yoki mojarolarni ochib beradigan muhim voqealiklar borligiga e'tibor berish orqali ayol va jamiyat munosabatlari o'rganiladi.

Tahlil va natijalar

Romandagi syujet chiziqlari diskretlik (lotin. discretus – “bo'lingan, uzilib-uzilib turadigan”) [5] asosida harakatlanadi. Dekster va Emma 1988-yilda Edinburg universitetini tamomlagandan so'ng, birga kechani o'tkazishadi. Ular o'sha kuni 40 yoshga to'lganda qanday bo'lishlari haqida gaplashishadi. Bu tun ular munosabatlarining boshlanishi bo'lmasa ham, do'stona aloqalarning boshlanish davri sifatida ta'riflanadi. Roman 20 yil davomida asar qahramonlarining hayotiy kechinmalarini, ularning hayoti va munosabatlari tafsilotlari haqidagi voqealarni har bir bobda ketma-ket tarzda gavdalanatiriladi. Romanda bosh qahramon sifatida gavdalanatirilgan Emma hayotini yaxshilash maqsadida pyesalar yozishni va ijro etishni boshlaydi, lekin ular muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Dekster esa dunyo bo'ylab sayohat qiladi, hayotini

ko'ngilxushliklar bilan o'tkazadi. Oxir-oqibat, ikkalasi ham Londonga ko'chib o'tadi, u yerda Emma Kentish Town shahrida joylashgan Tex-Mex restoranida ofitsiant bo'lib ishlay boshlaydi va bu vaqtda Dekster esa omadi chopgan teleboshlovchiga aylanadi.

Asarning voqealar ketma-ketligidan ko'rinib turibdiki, har ikki tomondan ayol va jamiyat munosabatlarini boshlash uchun turli ko'rinishdagi urinishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, tasodiflar Emma va Deksterning uchrashishlariga to'sqinlik qiladi. Ular taqdir yo'llarini bog'lashni orzu qilishsa-da, lekin boshqa-boshqa insonlar bilan hayot yo'llarini davom ettirishadi. Ularni bir-biriga yaqinlashtirgan voqea – Deksterning onasi vafoti munosabati tufayli o'tkazilgan marosim edi. Asarda Emma o'zi sevmaydigan odam bilan hayot kechirayotganini anglab yetgach, Ian bilan ajrashishni ma'qul ko'radi. Shundan so'ng Emma va Deksterning yaqin munosabatlari boshlanadi. Emma ko'p yillik urinishlaridan so'ng, nihoyat o'z mutaxassisligi bo'yicha o'qituvchi sifatida ish boshlaydi. Dekster esa muvaffaqiyatlardan esankirab, ichkilik va giyohvandlikka ruju qo'yadi. Bu esa, albatta, ular o'rtasidagi munosabatning buzilishiga olib keladi.

Roman 20 yil avval birga bo'lishgan kunidan keyin sodir bo'lgan voqealarning yorqin va uzoq xotirasi bilan yakunlanadi.

G.Ritchi "asarda do'stlikning juda chiroyli ko'rinishi tasvirlangan" [6] deb ta'riflaydi. Uning fikricha, Emma va Deksterning boshiga tushgan sinovlar qanchalik qiyin bo'lishiga qaramasdan, ularning do'st bo'lib qolishlariga sabab do'stlik rishtalarining samimiyatga yo'g'rilgani va mustahkamligi deb hisoblaydi.

Ingliz yozuvchisi Elizabet Dey ham asardagi ba'zi kamchiliklarni qayd etgan holda, asarni maqtovlarga loyiq asar sifatida ta'riflaydi. Adiba "asarda keltirilgan qahramonlar haqidagi o'ta muhim ma'lumotlar yashirin bo'lib qolganligi, bu esa qahramonning to'la obrazini yaratishda biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin" [7] ligini ta'kidlaydi.

Yana bir ingliz yozuchisi Nik Hornbi ham o'z blogida kitobni maqtab, uni "Bemisl, o'ziga tortuvchi, aqlli, hayratlanarli darajada o'qilishi mumkin bo'lgan

sevgi hikoyasi” [8] deb atagan. Uning bu soʻzlari kitobning baʼzi nashrlarida, masalan, AQShning qogʻoz muqovali nashrida qoʻllaniladi.

Albatta, bunday taʼriflar asar syujeti, qahramonlarning obrazlilik va asarning voqealar izchilligi yaxshi tuzilganidan dalolat beradi. Shuningdek, asarda koʻplab ayollar obrazlari mavjud, ularning asosiy qismi zaif va erkaklar tomonidan boshqariladigan ayollar tarzida tasvirlanadi. Bundan tashqari, asarda ayollar har doim erkakka tobe boʻlgan, ikkinchi darajali shaxs sifatida erkaklar tomonidan buyum sifatida tan olinishi kabi gʻoyalarni uchratish mumkin.

Asarda koʻtarilgan ayollarga tegishli muammolardan yana biri, bu ayollarning kasb tanlash va faoliyat yuritish borasidagi notengligi hisoblanadi. Hozirgi kunda ayollar nafaqat ishchi sifatida, balki rahbar sifatida ham faoliyat yuritib kelishlariga qaramay, hali-hanuzgacha ularning aql-zakovatini tan olmaydigan eskicha fikr yuritadigan insonlarning topilishi asar qahramonlari taqdiri misolida tasvirlashga harakat qilinadi.

Xulosalar

Mazkur tadqiqot zamonaviy ingliz nasrida ayol va jamiyat munosabatlarining badiiy talqinini tahlil qilishga bagʻishlandi. Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, XXI asr ingliz adabiyotida ayol obrazi ijtimoiy, madaniy va tarixiy omillar bilan uzviy bogʻliq holda tasvirlanib, ayol hayotining murakkab va koʻp qirrali jihatlarini yoritishga xizmat qiladi. Ayol va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlar adabiy asarlarda nafaqat shaxsiy kechinmalar, balki jamiyatdagi dolzarb muammolarni ochib beruvchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon boʻladi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, zamonaviy ingliz nasrida ayol obrazlari orqali gender tengligi, ijtimoiy adolat, shaxs va shaxsiyat masalalari, ayollarning ijtimoiy maqomi va huquqlari, shuningdek, jamiyat meʼyorlarining ayol shaxsiyatiga taʼsiri chuqur tahlil qilinadi. Yozuvchilar anʼanaviy gender stereotiplarini qayta koʻrib chiqib, ayolning mustaqil fikrlashi, oʻz yoʻlini tanlashi va jamiyatdagi faol ishtirokini badiiy jihatdan asoslashga intiladilar.

Devid Nikollsning “One Day” romani tadqiqotning asosiy badiiy manbasi sifatida o‘rganilib, asarda ayol va jamiyat munosabatlari realistik va hayotiy tarzda aks ettirilgani aniqlandi. Emma Morli obrazi orqali zamonaviy davr ayolining ichki kechinmalari, orzu-intilishlari, ijtimoiy bosimlar va shaxsiy tanlovlar o‘rtasidagi ziddiyatlar ochib beriladi. Ushbu obraz yozuvchining zamonaviy mustaqil ayol timsolini yaratish borasidagi badiiy mahoratini namoyon etadi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan mualliflik modeli ayol va jamiyat munosabatlarini hikoyachining yondashuvi, qahramon shaxsiyati, ijtimoiy me’yorlar, ramz va tasvirlar, syujet dinamikasi hamda madaniy-tarixiy omillar asosida tizimli tahlil qilish imkonini berdi. Ushbu yondashuv zamonaviy ingliz nasrida ayol obrazining shakllanish qonuniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ingliz nasrida ayol va jamiyat munosabatlarini o‘rganish adabiyotning ijtimoiy ahamiyatini ochib berish bilan birga, ayol hayotining murakkabligi va uning jamiyatdagi o‘rnini anglashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari kelgusida ingliz adabiyotshunosligi, gender tadqiqotlari hamda qiyosiy adabiy tahlillar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Copenhaver B. A Portrayal of Gender and a Description of Gender Roles in Selected American Modern and Postmodern Plays. 2002. – 563 p.
2. Нестерова С.А. Образ английской и американской женщины в представлении современников: последняя трет XIX-начало XX веков: Автореф. дис. ... кандидата исторических наук. – Самара, 2004. –21 с.
3. Хабибуллина Л.Ф. Женский национальный тип в английской литературе XIX века. //Вестник ЧГПУ11. – Казан, 2009. – С.292-299.
4. Пензина О.В. Женская проза второй половины XIX века: Автореф. дис. ... кандидата филологических наук. – Москва. 2009. –18 с.
5. Flood Alison. [David Nicholls and David Walliams win top prizes at National Book Awards](#). The Guardian, 2015. – 25 p.

6. Тўраева Б. Замонавий романларда хронотоп поэтикаси. – Тошкент: “EFFECT-D” нашриёти, 2022. – 287 б.
7. Ўразбаева М. Ҳозирги ўзбек романчилигида аёл образи ва унинг қиёсий таҳлили: Филол. фан. бўйича фалс. ...дисс. – Т., 2021. – 153 б.
8. Усманова С. Ўзбек ва инглиз романларида аёл руҳияти тасвири: Филол. фан. бўйича фалс. ...дисс. – Фарғона, 2020. – 140 б.
9. Хайруллина Д.М. Образ женщины в русской и татарской литературе 1890-1917 гг. (на примере творчества Г. Исхаки и М. Горького): Дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2005. – 222 с.
10. Халлиева Г. XX аср рус шарқшунослигида ўзбек мумтоз адабиёти тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Т., 2016. – 220 б.